



UDK:378.14

Guljaxan ALDJANOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gulyaaldzanova@gmail.com

O'zMU dotsenti U.Sodiqov taqrizi asosida

ISSUES OF DEVELOPING TEACHERS' ECONOMIC COMPETENCIES IN PEDAGOGY

Annotation

This article examines opinions, analyses, and scientific approaches to the development of teachers' economic competencies in pedagogy, competency-based approaches recognized by world scholars, and current issues in improving teachers' economic competencies.

Key words: Economics, finance, competence, technology, training, specialist, pedagogy, psychology, object and subject, conditions, market, dynamics, conflict, cognitive, creative, creative, functional, professional, value, initial, level.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ НА ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются мнения, анализы и научные подходы к вопросам развития экономических компетенций учителей в педагогике, компетентностные подходы, признанные мировыми учеными, актуальные вопросы совершенствования экономических компетенций учителей.

Ключевые слова: Экономика, финансы, компетенция, технология, подготовка, специалист, педагогика, психология, объект и субъект, условия, рынок, динамика, конфликт, когнитивный, креативный, творческий, функциональный, профессиональный, ценность, начальный, уровень.

PEDAGOGIKADA O'QITUVCHILARNING IQTISODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogikada o'qituvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga oid fikr-mulohazalar, tahlillar va ilmiy yondashuvlar, jahon olimlari tomonidan e'tirof etilgan kompetensiyaviy yondashuvlar, o'qituvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini takomillashtirishning dolzarb masalalari hususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisod, moliya, kompetensiya, texnologiya, tayyorgarlik, mutaxassis, pedagogika, psixologiya, ob'ekt va sub'ekt, shart-sharoit, bozor, dinamik, ziddiyat, kognitiv, kreativ, ijodkorlik, funksional, kasbiy, qadriyat, boshlang'ich, daraja.

Kirish. Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar o'qituvchilarning malakasi va kasbiy mahoratini, shuningdek iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunda o'z faoliyati natijalarini bashorat qila oladigan, ta'lim jarayonini modellashtira oladigan o'qituvchi qo'yilgan maqsadlarga erishishning garovi sifatida e'tirof tiladi. Shuning uchun ham shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda shaxsni tarbiyalashga qodir bo'lgan malakali, ijodkor, raqobatbardosh o'qituvchiga bo'lgan talab keskin oshadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «...yoshlarni yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarli, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim va dolzarb masalalardan biri ekanligini barchamiz yaxshi tushunamiz» [1]. Bunday vazifalar sirasiga yoshlarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari ham kiradi. Sababi, davlat iqtisodiy taraqqiyotining eng mustahkam poydevori bu insondir. Iqtisodiy madaniyat va iqtisodiy tarbiya uyg'unlikda insonning ijtimoiy faolligini aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'qituvchilar orasida yangi iqtisodiy mavqeni va shunga mos ravishda bugungi kun talabiga ega bo'lgan yangicha fikrlash uslubini shakllantirish zarurati paydo bo'ldi. Ta'lim shakli, sifati va mazmuni nafaqat davlat buyurtmalari, balki turli ijtimoiy guruhlarda yuzaga keladigan talablar bilan ham belgilana boshladi, ularning har biri uni amalga oshirish uchun o'z moliyaviy imkoniyatlariga ega [2]. O'qituvchi dars berish

uchun nafaqat o'z fanini yaxshi bilishi, samarali o'qitish metodikasiga ega bo'lishi, balki hayotning turli jabhalarida harakat qila olishi, madaniyatli inson bo'lishi kerak. Shuning uchun o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi uning kasbiy va ijtimoiy o'sishi va malakasini oshirishning asosiy vositasidir.

Dunyoda XXI asr nafaqat texnika va texnologiyalarning rivojlanish davri, balki iqtisodiy rivojlanishni qadriyatli, meyoriy asoslash muammolariga yechim topishga qiziqish uyg'ota oladigan asr sifatida tavsiflanadi. Har qanday jamiyatning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirishga e'tibor qaratishi shundan dalolat beradiki, iqtisodiyot faqat mutaxassislar tomonidan qiziqadigan soha emas, balki barcha fan soha vakillari, jumladan, siyosat, iqtisod, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlar ko'p e'tibor qaratadigan sohaga aylanmoqda. Sababi, hayotda iqtisodiy sharoitda [3] yuzaga keladigan muammoli jarayonlarning murakkabligi, ziddiyatlilik, uni bashorat qilib bo'lmazligi va turli obyektiv iqtisodiy qonunlarning butun majmuasini hisobga olishga imkon beradigan bilimlar tizimini yaratishni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining iqtisodiy sohasi aqlan yetuk shaxs turini talab qiladi va uning shakllanishida ma'lum darajada shart-sharoitlarni yaratishga intiladi. Buni yoshlarning kasbiy faoliyatga asosan iqtisodiy tayyorgarligini shakllantirish muammosini dolzarb etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'ziga xosligini ko'plab tadqiqotlarda ilmiy adabiyotlardan qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan,

Angliyaning iqtisodchi olimi J.M.Keyns iqtisodiy subyektni to'liq emas axborotga ega bo'lgan va noaniqlik holatida bo'lgan shaxs sifatida ko'rib chiqadi. Bunday insonga vaziyatni aqliy takomillashtirish uchun iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi e'tirof etadi [4].

V. G. Fedotovning "Iqtisodiy nazariyalarda inson ontologiyasi chegaralari" nomli asarida iqtisodiy nazariyalarda inson modelini tushuntirish va bu iqtisodiyotda insonning aqliy, ma'naviy-axloqiy o'rganishning yagona yo'li ekanligi borasida savollar qo'yiladi. Dastlabki olingan natija sifatida inson iqtisodiy modelining asosini uning xulq-atvor dominantlari va usullarini o'zida jamlagan fikrlarni oladi [5].

Jahon tajribalarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tobora jadallashib borayotgan sharoitda, asosan hozirgi sharoitda to'g'ri yo'l topa oladigan va ma'lum darajada harakat qila oladigan iqtisodiy kompetensiyaga ega mutaxassisni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bozor iqtisodiyoti mexanizmlari bilan shartlangan mazkur jarayonning dinamik xususiyati, insondagi atrofda yuz berayotgan voqealarni mos ravishda aniqlash qobiliyati, kasbiy kompetensiyaning yuqori darajasi va o'zini va ijtimoiy-iqtisodiy muhitni o'zgartira olishga qaratilgan loyihalar va dasturlarni amalga oshirishga iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini yechishga qaratiladi. Shu bilan birga, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi, uning tayyorgarligi, o'z vazifalarini aqlan, maqsadga muvofiq bajara olish qobiliyati, faoliyatning meyoriy funksiyalari doirasidan tashqariga chiqishni nazarda tutadi.

Jumladan, Rossiya iqtisodiy sohasidagi global o'zgarishlar va inson omilining ahamiyati ortib borishi bilan tavsiflanib, uni yanada rivojlantirishda shaxsning kasbiy faoliyatga kompetensiyaviy tayyorgarligini shakllantirish jarayonini amalga oshirishning pedagogik tamoyillarini izlashni dolzarb qiladi. Sababi, aynan pedagogikada shaxs va jamiyat iqtisodiyoti o'rtasidagi o'zaro ta'sirchanlikning asosiy komponentlari o'ziga xos tarzda belgilanib, ta'lim jarayoni ustuvor ahamiyat kasb etadi va amaliyotda iqtisodiy muammolarni hal qilishda yordam beradi [6]. Albatta bu kabi innovatsion g'oyalar oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayonida kasbiy-pedagogik faoliyatga iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirish, o'qituvchilarning malaka, ko'nikma va tajribalarida yetarli darajada o'z aksini topishini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. Barchaga ma'lum oliy ta'lim muassasalarida talabalar turli sohalarida to'laqonli kasbiy hamkorlik uchun zarur bo'ldigan shaxsiy fazilatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda mavjud kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan bilimlarni egallaydi. Shuning uchun pedagogikada o'qituvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish tamoyillarining muhim jihatlari o'rganish va tadqiq etishda ustuvor ahamiyat kasb etuvchi shaxs va jamiyat orasidagi o'zaro ta'sirchanlikning asosiy yondashuvlari o'ziga xos tarzda belgilanadi.

Pedagogika ta'limi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning amaliyotini o'rganish ko'plab qarama-qarshiliklarni aniqlash imkonini berdi. YA'ni bugungi kunda talabalarning iqtisodiy kompetensiyalarni to'liq shakllantirishni murakkablashtirdi. Bunda quyidagilarni asos sifatida ajratib ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan;
- iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish shart-sharoitlarining yetarli darajada tashkil qilinmagan [7].

Bu esa jamiyatning samarali ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro ta'sir vositasi sifatida iqtisodiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassisga ehtiyoji va belgilangan tayyorgarlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yetarli darajada ishlab chiqarishni, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida

iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish nuqtai nazaridan sezilarli shart-sharoitlarining shakllanishini talab qiladi.

Qolaberdi, pedagogikada o'qituvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini pedagogik qadriyat sifatida ko'rib chiqishga undovchi quyidagi omillarni keltirib o'tish o'rinli bo'ladi. Jumladan:

1. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi davlat iqtisodiyotini rivojlantirishning zamon talablariga mos kelmasligi;
2. O'qituvchining iqtisodiy tushunchalarining lozim darajada shakllanmaganligi;

Bu esa o'qituvchilarning iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish maqsadlari, tamoyillari, shakllari va natijalarini aniq belgilaydigan shakllangan iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga ta'sirchanligini orttirganligi bilan tavsiflanadi [8].

Bular kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati va bo'lajak o'qituvchi faoliyatida iqtisodiy ko'nikmalarning zarurligini belgilaydi.

O'qituvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish bizningcha ta'lim - tarbiya maqsadlariga erishish uchun nazariy bilimlar va amaliy tajribadan foydalanishda kognitiv va operatsion-faoliyatni aks ettiruvchi shaxsning murakkab integrativ ta'limi muvofiqlashtirishga tayangan holda talqin qilinadi. Bu esa o'qituvchining oliy ta'lim muassasasida kasbiy tayyorgarligi tizimini aks ettiradi.

Ko'pchilik psixolog olimlar A.G.Kovalev, M.I.Dyachenko va boshqalar bu jarayonni holat va shaxsning barqaror xususiyati sifatida talqin qilinadi. Uning tarkibida qanday da bir faoliyat turiga ijobiy munosabatning faoliyat talablariga adekvat xarakter xislatlari, motivlar, zaruriy bilimlarni egallashda esa ko'nikma, malakalar, barqaror idrok, diqqat, tafakkur, emotsional va irodaviy ko'rinishlar aks ettiriladi [7]. Bundan, iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishga uzoq vaqt tayyor turish shaxsning barqaror xususiyati sifatida namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Ko'pincha kompetentlik va kompetensiya bir-biriga yaqin tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi. Oliy ta'limda jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash natijalari tahlili tayyorlik bosqichida ajratiladigan kompetensiyalar tizimida keng ifodalanganligini ta'kidlash imkoniyatini beradi. Lekin, shaxsning potensial sifati namoyon bo'ladigan kompetentlikdan farqli ravishda, tayyorlik uzluksiz sifatni ifodalaydi. Tayyorlik shaxsning nisbatan o'zgartirilishi mumkin bo'lgan xususiyati ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, uni inson hayot faoliyatining qanday da bir bosqichida samadorlikka erishilgan kompetentlik darajasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Shunday qilib, pedagogikada o'qituvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining asosiy maqsadida - olingan bilim, ko'nikma va malakalardan aqlan qabul qilish, kognitiv, kreativ va ijodiy foydalanish, shuning bilan birga shaxsiy fazilatlarini ro'yobga chiqarish orqali funksional majburiyatlardan xalos bo'lishga va moliyaviy vazifalarni amalga oshirishga qodir shaxsni rivojlantirishga ko'maklashish sifatida e'tirof etish o'rinli bo'ladi [9]. Chunki hozirgi zamonaviy ta'lim - bu shaxs, jamiyat va davlatning bugungi va kelajakdagi ehtiyoj va talablarini qondirish, jamiyatga ijtimoiy jihatdan moslasha oladigan, faoliyatiga erkin kirisha oladigan, o'z-o'zini tarbiyalash va bilim va salohiyatini takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan barkamol shaxsni tayyorlashdan iborat.

O'qituvchilarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishda, ijodiy individual bilimlarini mustahkamlash, pedagogik innovatsiyalarga ta'sirchanlikni shakllantirish, o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyatlarini takomillashtirish ahamiyatlidir. Chunki jamiyatning ijtimoiy-

iqtisodiy va ma'naviy yetukligi bevosita o'qituvchining iqtisodiy va kasbiy kompetensiyalariga bog'liq bo'ladi.

Sababi o'qituvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish deganda iqtisodiy ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari va usullari asosida insonning iqtisodiy rivojlanishi va tarbiyasi amalga oshiriladigan pedagogik jarayonni tushunamiz va xulq-atvorida bu xususiyatlar o'z ifodasini topadi. Demak, oliy ta'lim va boshqa o'quv maskanlari ma'naviy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, uning mahsuli yangi bilimlar, maqsadlar, qadriyatlarini shunchaki o'zlashtirib qo'ymasdan, balki o'zida davlat va jamiyat iqtisodiyoti, shaxsiy iqtisodiy rivojlanishining subyektiga aylanishida muhim kuchlari va qobiliyatlarini namoyon etadi.

Jumladan o'qituvchining iqtisodiy kompetensiyasi deganda muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan kasbiy va shaxsiy fazilatlar majmui tushunishimiz mumkin. O'qituvchining kasbiy kompetentligi esa o'qituvchining pedagogik faoliyati, pedagogik muloqoti va muayyan qadriyatlar, ideallar va pedagogik ong tashuvchisi sifatida o'qituvchi shaxsining shakllanishini belgilaydigan zarur bilim, ko'nikma va malakalarga egaligi [10] tushuniladi.

Kompetensiyaning ilmiy yondashuvlarda keng qo'llanilishi ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish zarurati bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Ozarbayjonning umumta'lim mazmunini bo'yicha ta'lim strategiyasida ta'lim

muassasasining asosiy natijalari bilim, ko'nikma va malakalar tizimi bo'lmasligi kerakligi qayd etilgan. Bu yerda gap bilim olishda intellektual, huquqiy, axborot va boshqa sohalardagi asosiy kompetensiyalari haqida bormoqda.

Xulosa va takliflar. Ta'lim tendensiyalariga muvofiq malakasini oshirish, o'z imkoniyatlarini baholash, mustaqil o'rganish, mustaqil qaror qabul qilish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish, ishlash usullarini qayta ishlash va yangilikka intilish bularning barchasi umumiy pedagogik iqtisodiy kompetensiyalar hisoblanadi.

Xulosa o'rnida iqtisodiy kompetensiyaning rivojlantirilish masalalari shaxsga azaliy berilgan yoki unga immunitet sifatida o'ziga xos bo'lgan xususiyat emas, balki mehnat faoliyatning ma'lum bir shart-sharoitlarida qo'lga kiritiladi. Bunda faoliyat usullari, yondashuvlar, ko'nikma va malakalar yig'indisi shaxsiy sifatlar va individual iqtisodiy kompetensiya xususiyatlari ko'rinishida o'zgaradi va mustahkamlanib boradi. Bu jihatdan iqtisodiyot fani moliyaviy masalalarda emas, balki insonning shaxsiy xususiyatlarining dinamik, rivojlanuvchi tizimi sifatida gavdalanadi. Aynan shu orqali o'qitish va malakalarini oshirish jarayonida iqtisodiy tayyorgarlikning ma'lum bir boshlang'ich darajasi shakllanadi, bu esa o'qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun alohida dolzarblilik kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir. / Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruzasi. // «XXI ASR», 2016 yil 21 oktabr, 44-son.
2. Razzoqov. A., Toshmatov. Sh., N. O'rmonov., Iqtisodiy ta'minotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002, 50-bet
3. Дьяченко, М. И. Психологические проблемы готовности к деятельности [Текст] / М. И. Дьяченко, Л. А. Кандыбович. – Минск, 2008. – 176 с.
4. Зимняя, И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании [Текст] / И. А. Зимняя. – М. : Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. – 40 с.
5. Исаев, И. Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя [Текст] : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / И. Ф. Исаев – М. : Академия, 2002. – 208 с.
6. Кейнс, Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег [Текст] : монография / Дж. М. Кейнс. – Петрозаводск : Петроком, 1993. – 307 с.
7. Кобозева, И. С. Формирование профессиональной компетентности педагога-музыканта как средство обеспечения качества непрерывного образования [Текст] / И. С. Кобозева // Ярославский педагогический вестник. – 2013. – № 4. – Т. II (Психологопедагогические науки). – С. 154–159.
8. Ковалев, А. Г. Психология личности [Текст] / А. Г. Ковалев. – М. : Знание, 1969. – 361 с.
9. Кузьмина, Н. В. Формирование педагогических способностей [Текст] / Н. В. Кузьмина. – Л. : Изд-во Ленинградского университета, 1961. – 97 с.
10. Маркова, А. К. Психология труда учителя [Текст] / А. К. Маркова. – М. : Просвещение, 1993. – 192 с.